

MEVA EKINLARINING KELIB CHIQISHI, BOTANIK TA'RIFI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

*G'ayratova Sevinch Akramjon qizi
Ismoilova Sevinch Sayidvali qizi
Ramazonova Marjona Umar qizi
Ro'ziqulova Dilruh Do'stmurod qizi
Toshkent davlat agrar universiteti
Meva sabzavotchilik va uzumchilik fakulteti talabalari*

Annotatsiya:

Mevachilik sohasida har bir madaniy turning ko'plab navlari bo'lib, bu soha asosan yer sharing shimoliy qismida yaxshi rivojlangan. Dunyo bo'yicha meva va rezavor meva ekinlarining 50 ga yaqin oilasi, 200 ta turkumi, 1000 dan ortiq turi mavjud, bu ko'rsatkich O'zbekistonda 108 tani qayd etib, bulardan 73 tasi madaniylashtirilgan, 25 tasi keng tarqalgan turlardir. Jahon bo'yicha meva ekinlari maydoni 55 mln.ga (2015-yil) ni tashkil etib, mevali o'simliklarning biologik xususiyatlari va xo'jalik sohasidagi ahamiyatiga ko'ra turli hududlarda, turlicha miqdorda ekib o'stiriladi.

Kalit so'zlar: Xo'jalik-biologik, subtropik, sitrus, rezavor, ekzokarp, payvandtag, o'sish kuchi, fotosintez, areal, agrotexnik.

Annotation.

In the field of fruit growing, there are many varieties of each cultivated species, and this field is well developed mainly in the northern part of the globe. There are about 50 families, 200 genera, and more than 1,000 species of fruit and berry crops in the world, this indicator includes 108 species in Uzbekistan, 73 of which are cultivated, and 25 are common species. The area of fruit crops in the world is 55 million hectares (2015), and they are planted and grown in different amounts in different regions, depending on the biological characteristics of fruit plants and their importance in the field of economy.

Keywords: Economic-biological, subtropical, citrus, berry, exocarp, grafting, growth force, photosynthesis, areal, agrotechnical.

Аннотация.

В области плодоводства имеется множество разновидностей каждого культивируемого вида, причем эта отрасль хорошо развита преимущественно в северной части земного шара. В мире насчитывается около 50 семейств, 200 родов и более 1000 видов плодово-ягодных культур, в Узбекистане к этому показателю относятся 108 видов, из которых 73 культивируемых, а 25 — обычные виды. Площадь плодовых культур в мире составляет 55 млн га (2015

г.), при этом в разных регионах их сажают и выращивают в разных количествах в зависимости от биологических особенностей плодовых растений и их значения в сфере хозяйства.

Ключевые слова: Хозяйственно-биологический, субтропический, цитрусовый, ягодный, экзокарпий, прививка, сила роста, фотосинтез, площадной, агротехнический.

Mevali o'simlik turlari mevalarining morfologik o'xshashligi, o'stirish sharoitlariga talabi, mevalarining oziq-ovqatlik va texnologik qiymati va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagi xo'jalik-biologik guruhlariga bo'linadi: urug'li, danakli, yong'oq, subtropik, sitrus, rezavor mevalar guruhi, morfologik xususiyatlariga ko'ra har xil tropik mevali ekinlar guruhi ham bor, lekin tropik o'simliklar mamlakatimizda ochiq yerda yetishtirilmaydi va ular qishloq xo'jaligida amaliy ahamiyatga ega emas, dunyo miqyosida qaralganda tropik mevalar yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichi va maydoni bo'yicha yetakchi o'rinda turadi.

Urug'li meva ekinlari guruhiga olma, nok, behi, do'lana, irg'ay, chetan, mushmula o'simliklari kiradi. Mevalari sersuv, meva eti iste'mol qilinadi, mevasi ostki tugunchadan shakllanadi. Meva ichida o'tkazuvchi nay bog'lamlari bilan chegaralangan yurakcha mavjud, mevasi besh uyali, ko'p urug'li.

Danakli mevalarga o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha, gilos, jiyda o'simliklari kiradi. Mevalari yuqori tugunchadan shakllangan. Mevaning mezokarp qismi sersuv, iste'mol qilinadi.

Yong'oq mevalar guruhiga yong'oq, bodom, pekan, pista, o'rmon yong'og'i, kashtan, funduk misol bo'ladi. Mevani ekzokarp o'rab turadi, mag'zi yog'ochsimon, ozuqaviylik miqdori yuqori bo'lib, meva tarkibida oqsil va moy miqdori yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

Subtropik mevalarga anor, anjir, xurmo, zaytun, chilonjiyda, tut o'simliklari misol bo'ladi. Mevalari tarkibida ko'p miqdorda qand, moy, organik kislotalar bor. O'simlik minus 10-15 °C dan past sovuqqa chidamsiz hisoblanadi.

Sitrus mevalarga limon, apelsin, mandarin, greypfrut, bigaradiya, trifoliata misol bo'ladi. Tipik issiqsevar subtropik o'simliklar bo'lib, meva po'sti ekzokarp, mezokarp qismi sersuv. O'ziga xos ta'mli va foydali xususiyatlidir.

Rezavor mevalarga qulupnay, malina, krijovnik, smorodina, aktinidiya, chakanda, na'matak, qorag'at o'simliklari kiradi. Rezavor mevalar shifobaxsh o'simliklar bo'lib, ulardan turli xil murabbo, konserva mahsulotlari tayyorlanadi, mevalari uzoq saqlanmaydi hamda yig'ish jarayonida ehtiyotkorlikni talab etadi.

Tropik mevalarimizga banan, kivi, ananas, qovun daraxti, mango, avokado, manguston, evgeniya kabi o'simliklar kiradi.

Yer ustki qismining tuzilishi, hosil berishi, uzoq yashashi va boshqa belgilariga ko'ra meva va rezavor meva o'simliklari daraxt, buta, chala buta va ko'p yillik o'tchil o'simliklarga bo'linadi. O'zbekiston sharoitida meva daraxtlari yirik ko'rinishni oladi, yong'oq, olma va o'rikning kuchli o'suvchi navlari balandligi 10-15 m ga, shoxlari kengligi 11-13 m ga yetadi. Adabiyotlarda yozilishicha, qisqa bo'yli daraxtkar uzun bo'yli daraxtlarga nisbatan 2-4 yil oldin hosilga kiradi, lekin erta hosilga kiruvchi daraxtlar kech hosilga kiruvchilariga nisbatan yashash davri qisqaroq bo'ladi. Hosildorlik bilan daraxtning o'sish kuchi orasida teskari proportsional bog'liqlik bo'lganligi uchun ushbu daraxtlar erta hosilga kiradi va mo'l hosil berganligi tufayli bo'yi past bo'lib rivojlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra olmaning Renet Simirenko navi 4-5 yilda hosilga kirib, 30 yilda asosiy shoxlari quriy boshlaydi, Kandi sinap navi esa aksincha, 9-11 yilda hosilga kirib, 45-50 yilda ham qurib qolmaydi.

Hozirgi vaqtda bog'zorlarni tashkil etishda intensiv bog'dorchilikga katta e'tibor berilmoqda, bunda aynan meva va rezavor meva ekinlarining biologik xususiyatlariga va morfologiyasiga urg'u beriladi. P.U.Ursulenkoni fikricha, pakana bo'yli daraxtlar fotosintez jarayonida hosil bo'lgan moddalarni 60 % ini, kuchli payvandtagda o'suvchi daraxtkar esa 40 % miqdorini hosilni shakllantirishga sarflaydilar. Ko'pgina olimlarning fikricha, bir gektardagi daraxtlarning barg sathi 30-40 ming m² ni tashkil etganda bog'dan yuqori hosil olish mumkin, bu ko'rsatkich o'simlikning morfologiyasi hamda unga maqsadli shakl berishga bog'liq bo'ladi.

Mo'tadil iqlim sharoitida o'sish jarayonlarining davriyligi mevali ekinlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Har bir meva turi va navi genotipiga mos ravishda quyi haroratlarga nisbatan muayyan chegaradagi chidamlilikka ega bo'ladi va biologik xususiyatlarini namoyon qiladi. Bunga ko'ra sovuqqa chidamliligini hamda qishga chidamliligini belgilovchi guruhlariga bo'linadi. Mevali ekinlar navlarining tez hosilga kirishi va hosildorlik ko'rsatkichi yuqorida aytib o'tilganidek o'simlikning morfologiyasi va biologiyasiga mutanosib ravishda qayd etiladi. Mevalarning sifat ko'rsatkichlari, o'lchami, rangi, shakli, ta'mi, saqlanish muddatlari turlari bo'yicha ham bir-biridan farq qiladi. Rezavor mevalarga berilgan ta'rif urug'li, danakli va shu kabi boshqa guruhlarnikidan ajralib turadi.

Meva va rezavor meva o'simliklarining yana bir muhim biologik xususiyatlaridan biri kasallik va zararkunandalarga chidamliligidir. Navning chidamlilik ko'rsatkichi irsiy belgi bo'lib, bog'dorchilikni tashkil etishda ayni shu xususiyat hosildorlikning yuqori yoki aksincha bo'lishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Meva po'sti qalin bo'lgan o'simliklarda mevasi yupqa po'stdan tashkil topganlariga nisbatan kasallik va zararkunandalarning hosildorlikka zarari kamroq bo'ladi.

Ayrim meva va rezavor meva o'simliklarining ildiz sistemasi yaxshi rivojlanganligi sababli, qurg'oqchilikka bardoshli bo'ladi. Tarqalish arealiga ko'ra ba'zilar unumdor tuproqlarni talab qilsa, ba'zilar shag'alli va qum yerlarda yaxshi

o'sadi, shunga ko'ra tog' va tog'oldi zonalarida ham mevali o'simliklarning turli vakillarini uchratishimiz mumkin. O'sish davri davomida yorug'lik va haroratning yuqori bo'lishi, tuproqning unumdorligi, sug'orish usullaridan afzallarini tanlash, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida olib borish, turli noqulay sharoitlarga qarshi chora tadbirlarni o'tkazish, zararli organizmlardan uyg'unlashgan himoya qilish natijasida har bir meva va rezavor meva o'simliklaridan biologik xususiyatlariga mos ravishda yuqori hosildorlikni olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Mevachilik va sabzavotchilik (Mevachilik)" T.E.Ostonaqulov, S.Ya.Islamov, X.X.Xonkulov, S.T.Sanayev, D.K.Xolmirzayev Toshkent-2018 "Navro'z" nashriyoti
2. "Mevachilik asoslari" T.E.Ostonaqulov, S.X.Narziyeva, B.X.G'ulomova Toshkent-2011 "Tafakkur-Bo'stoni" nashriyoti
3. "Urug'li intensiv meva bog'lari" A.U.Aripov, A.A.Aripov Toshkent-2013 "Sharq" nashriyoti
4. "Meva- rezavor ekinlari seleksiyasi va navshunosligidan amaliy mashg'ulotlar" H.Ch.Bo'riyev, K.I.Baymetov, A.T.Jononbekova, Z.A.Abdiqayumov Toshkent-2004 "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti
5. "Meva-uzum mahsulotlari biokimyosi va texnologiyasi" H.Bo'riyev, R.Rizayev Toshkent-1996 "Mehnat" nashriyoti